


Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2025-yilning yanvar-iyun oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4 757,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqining so'nggi besh yillik dinamikasi tahlil etilganida, 2021-yilning 2-choragida 2 661,4 ming so'mni tashkil etgan, ish haqi miqdori 2025-yilning 2-choragiga kelib 4 757,2 ming so'mni tashkil etdi va so'nggi besh yilda 2 095,8 ming so'mga oshdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)



II. Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-iyun oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 757,2	114,2
Nukus shahri	6 411,1	113,5
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	3 151,3	113,9
Beruniy	3 509,3	114,7
Bo'zatov	3 438,6	109,7
Qorao'zak	3 710,5	114,1
Kegeyli	3 827,4	110,3
Qo'ng'irot	5 121,2	108,7
Qonliko'l	3 777,0	112,9
Muynoq	3 808,3	104,3
Nukus	5 011,9	121,2
Taxiyatosh	4 975,0	121,5
Taxtako'pir	3 479,1	113,3
To'rtko'l	3 691,3	116,7
Xo'jayli	4 512,4	123,7
Chimboy	3 801,4	113,1
Shumanay	3 426,7	106,6
Ellikqal'a	3 843,9	117,3

Tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan, Xo'jayli tumani bu borada yetakchilik qilib, o'rtacha oylik ish haqi 4 512,4 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,7 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Qorao'zak tumanida 3 710,5 ming so'mni (114,1 %), Beruniy tumanida 3 509,3 ming so'mni (114,7 %), Ellikqal'a tumanida 3 843,9 ming so'mni (117,3 %), Nukus tumanida 5 011,9 ming so'mni (121,2 %) va Taxiyatosh tumanida 4 975,0 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,5 %) ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Muynoq tumanida 3 808,3 ming so'm (104,3 %), Shumanay tumanida 3 426,7 ming so'mni (106,6 %), Qo'ng'irot tumanida 5 121,2 ming so'mni (108,7%), Bo'zatov tumanida 3 438,6 ming so'm (109,7 %), Kegeyli tumanida 3 827,4 ming so'mni (110,3 %), Qonliko'l tumanida 3 777,0 ming so'm (112,9 %), Chimboy tumanida 3 801,4 ming so'mni (113,1 %), Taxtako'pir tumanida 3 479,1 ming so'mni (113,3 %), Nukus shahrida 6 411,1 ming so'mni (113,5 %), Amudaryo tumanida 3 151,3 ming so'mni (113,9 %) hamda To'rtko'l tumanida 3 691,3 ming so'mni (116,7 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-iyun oylariga oid bo'lib, 2024-yilning shu davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Sanoat	6 751,4	116,7
Qurilish	4 172,7	111,2
Savdo	4 696,0	102,5
Tashish va saqlash	6 367,3	112,6
Yashash va ovqatlanish	4 279,0	103,4
Axborot va aloqa	8 017,5	125,9
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	12 930,9	113,0
Ta'lim	3 818,6	115,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 943,4	110,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	4 020,1	126,7
O'rtacha ish haqi	4 757,2	114,2



O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,7 % ni tashkil qilgani, ish haqi miqdori esa 4 020,1 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, tashish va saqlash sohasida esa 6 367,3 ming so'mni tashkil etib, 12,6 % ga, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida 12 930,9 ming so'mni tashkil etib, o'sish 13,0 % ga, ta'lim sohasida o'rtacha ish haqi 3 818,6 ming so'mni tashkil etib, 15,2 % ga, sanoat sohasida ish haqi miqdori 6 751,4 ming so'mni tashkil etib, 16,7 % ga, axborot va aloqa sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 8 017,5 ming so'mni tashkil etib, o'sish 25,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi savdo sohasida 4 696,0 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga, yashash va ovqatlanish sohasida 4 279,0 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 3 943,4 ming so'mni tashkil etib, 10,0 % ga, qurilish sohasida esa 4 172,7 ming so'mni tashkil etib 111,2 % ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.


IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025-yilning II-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 12 930,9 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 7 032,3 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 5 282,0 ming so'mga, sanoat sohasida 2 644,0 ming so'mga, savdo 2 201,6 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 2 733,0 ming so'mga, qurilish sohasida 1 430,8 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.


O‘rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi, ming so‘m

- bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati
- axborot va aloqa
- tashish va saqlash
- sanoat
- savdo
- qurilish
- ta’lim
- sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar




Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqi 6 751,4 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning tarkibi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi miqdori tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 7 299,6 ming so‘m, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida 8 637,6 ming so‘m, ishlab chiqarish sanoati sohasida 7 164,6 ming so‘m, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida 2 968,7 ming so‘m ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 696,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlash tarmog'ida 1 900,0 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasida 7 266,9 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasida 4 899,4 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik ish haqi 6 367,3 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning ayrim sohalari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo‘jaligi va yordamchi transport sohasida 7 427,7 ming so‘mni, quruqlikdagi va quvur transporti sohasida 6 542,0 ming so‘mni, pochta va kurerlik faoliyati sohasida 2 958,2 ming so‘mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o‘zgarishi dinamikasi, ming so‘m




Axborot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik ish haqi 8 017,5 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning ayrim sohalari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi axborot xizmati ko‘rsatish sohasida 4 525,8 ming so‘mni, aloqa sohasida 8 922,6 ming so‘mni va noshirlik faoliyati sohasida 2 955,9 ming so‘mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o‘zgarishi dinamikasi, ming so‘m




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 12 930,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasida 8 788,1 ming so'mni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat sohasida 5 531,9 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 13 071,8 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 818,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 7 858,5 ming so'mni, texnik va professional ta'lim sohasida 4 043,6 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim sohasida 3 917,4 ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasida esa 2 231,2 ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)



V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi PF-4609-sod Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarini o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

F

W_n = **L**

Bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024 yil 31 maydagi 122-soni qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Mamutova
Tel: 61_222-76-57
(9570)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov ko'chasi,
97 a-uy Pochta:
info@qrstat.uz